

Dolzarb mavzu



Islom XUSHVAQTOV,
“Davlat ekologik ekspertizasi markazi”
davlat muassasasi bosh direktori
maslahatchisi

Mamlakatimizda ham qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish kun tartibiga chiqmoqda. Mazkur tarmoqni taraqqiy ettirish davlatning yagona energetika va ekologik siyosati etib belgilandi. Davlatimiz rahbari mustaqilligimizning oʻttiz toʻrt yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida bu boradagi ishlar va erishilayotgan natijalar xususida toʻxtalib, jumladan, bunday dedi: “Shu yilning oʻzida 6,5 milliard kilovatt-soat “yashil” energiya ishlab chiqarildi. Eng muhimi, jami generatsiya quvvatlarida “yashil” energiya ulushi 30 foizga yetdi. Biz 2030-yilgacha yana 35 milliard dollar toʻgʻridan toʻgʻri investitsiya hisobidan “yashil” energiya ulushini 54 foizga olib chiqamiz”.

Biroq bugungi globallashuv jarayonida energiya olish uchun mamlakatimizda anʼanaviy energiya manbalaridan foydalanilmoqda. Xususan, koʻmir, tabiiy gaz va neft mahsulotlari bilan birga mazut ham ishlatilyapti.

“Mazut” soʻzining lugʻaviy maʼnosi “qoldiq”, “chiqindi” demakdir. Yaʼni mazut neftni qayta ishlash jarayonida olinadigan eng oxirgi fraksiya boʻladi. Uzoq



Sharh

AGRAR TARMOQNI

SANOATLASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATI

Bugun butun dunyoda qishloq xoʻjaligi sohasini rivojlantirish, aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish muhim yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.



Jahongir GALAYEV,
Oʻzbekiston fermerlari kengashi
bosh mutaxassisi

Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xoʻjaligi sohasida keng koʻlamli islohotlar oʻtkazilmoqda. Ekin maydonlari diversifikatsiya qilinib, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotimiz hajmi yil oxiriga borib, 130 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bunda qishloq xoʻjaligining ham alohida oʻrni bor. Yaʼni yalpi ichki mahsulotning qariyb 20 foizi shu soha hissasiga toʻgʻri keladi.

Keyingi yillarda yurtimizda paxta maydonini qisqartirish hisobiga 160 ming gektar yangi bogʻ va tokzor barpo etildi. Bundan tashqari, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish boʻyicha yirik loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Natijada ishlab chiqarish hajmi oshib, qayta ishlash korxonalari, fermer, dehqon xoʻjaligi, tadbirkorlar soni ortmoqda.

Davlatimiz rahbarining joriy yil tadbirkorlar bilan oʻtkazgan navbatdagi ochiq muloqotida dehqon va fermerlarga qulaylik yaratish, soliq yukini yengillashtirish boʻyicha qator murojaatlar boʻlgan edi.

yillar davomida undan asosiy va ajralmas muqobil yoqilgʻi manbai sifatida foydalanib kelinmoqda. Koʻplab obyektlar uchun avariya holatida mazut zaxiradagi yoqilgʻi vazifasini oʻtaydi. Ammo bugungi iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq vaziyat hamda ekologik talablar undan foydalanishga xos dunyoqarashni tubdan oʻzgartirdi. Avvalo, narxining boshqa neft mahsulotlarinikiga nisbatan 3-5 barobar yuqoriligi, tarkibi 3,5 foizgacha olingugurtdan iboratligi, foydalanishda qurilmalarning tezkor korroziyaga uchrashi mazut ishlatish iqtisodiy samarasiz ekanini tasdiqlamoqda.

Eng asosiysi, mazut yoqanda atrof-muhit keskin ifloslanishi bugungi global iqlim oʻzgarishlari davrida aholi sogʻligʻi hamda ekologik barqarorlikka katta tahdid soladi. Birgina 2023-yilda mamlakatimizda 268,6 ming tonnadan ortiq mazut yoqilgani natijasida atmosfera salkam 16 ming tonna ifloslantiruvchi modda chiqqan.

Shundan kelib chiqqan holda “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2025-yil yakuniga qadar respublikaning barcha hududida issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalarida yoqilgʻi sifatida mazutdan foydalanishni taqiqlash vazifasi belgilangan. Bunda kuz-qish mavsumida issiqlik markazlarini tabiiy gaz bilan toʻliq taʼminlash choralari koʻriladi.

Bu borada Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” davlat muassasasi sanoat korxonalari tomonidan taqdim etilayotgan atrof-muhitga taʼsiri baholash materiallari loyihalariga qatʼiy ekologik talablarni oʻrnatadi.

Avvalo, mazkur vazifa ijrosini taʼminlash maqsadida 2026-yildan boshlab respublikaning barcha hududidagi issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalari qurilishi loyihalariga yoqilgʻi sifatida mazutdan foydalanishni taqiqlash (hukumat bilan kelishilgan holda avariyaaviy yoqilgʻi sifatida foydalanish holatlaridan bundan mustasno) boʻyicha koʻrsatmalar beradi. Shuningdek, atmosfera ifloslantiruvchi moddalar chiqishini kamaytirish maqsadida atrof-muhitga yuqori darajada taʼsir koʻrsatuvchi korxonalariga atmosfera havosini



ifloslantiruvchi manbalarni toʻliq chang-gaz tozalash uskunalari bilan jihozlash talabini belgilaydi. Bugun mazut kabi uglevodorod yoqilgʻi turlaridan foydalanuvchi barcha obyektlar davlat ekologik ekspertizasi obyektidir. Ekologik ekspertiza faoliyatini hamda issiqxona gazlari chiqarilishini tartibga soluvchi yangilangan qonunlarga asosan iqtisodiyot tarmoqlari uchun issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirish maqsadli koʻrsatkichlariga asosan ekologik normativlar har bir korxonaga belgilangan maqsadli koʻrsatkichlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.

Shuningdek, Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida ekologik xavfli korxonalar faoliyati boʻyicha yangi loyihalarni amalga oshirishni taqiqlash hamda shaharsozlik hujjatlarining ekologik ekspertizasi jarayonida quruvchilarga nisbatan koʻp qavatli uylar atrofida yashil hududlarni va daraxtlarni sugʻorish tizimini yaratish boʻyicha majburiy talablarni joriy etadi. Yirik aholi punktlarida faoliyat yuritib kelayotgan, energiya sigʻimi katta va atrof-muhitga taʼsiri yuqori boʻlgan obyektlarni aholi punktlaridan bosqichma-bosqich koʻchirish mexanizmini yoʻlga qoʻyadi.

Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqishini tahlil qiluvchi monitoring stansiyalar hamda chang-gaz tozalash uskunalarini import qilishda davlat boji miqdorini qayta koʻrib chiqish ham bugunning muhim talabi. Shuningdek, chang-gaz tozalash uskunalarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish boʻyicha imtiyozli kreditlar, subsidiya va preferensiyalarni joriy etish, mol-mulk soligʻi boʻyicha imtiyozlarni koʻzda tutish mazkur yoʻnalishdagi ishlar samaradorligini oshirishga hissa qoʻshadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida mazutdan foydalanishni taqiqlash fuqarolarning Konstitutsiyamizda belgilangan qulay atrof-muhitga ega boʻlish huquqlarini taʼminlash, mamlakatning xalqaro hujjatlar doirasidagi majburiyatlarini toʻliq amalga oshirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.



tizimi joriy etiladi. Bunda yuqori xavf darajasiga ega elektron hisobvara-qfakturalar ulushi hisobot davrida rasmiylashtirilgan jami elektron hisobvara-qfakturalar sonining 10 foizidan oshmasligi kerak. Qoʻshilgan qiymat soligʻi summasi sotuvchi yoki xaridor tomonidan byudjetga toʻliq toʻlangandan keyin hisobga olinadi.

Yana bir muhim jihat. Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi 2026-yil 1-yanvardan boshlab “Space Gov Monitoring” markazlashgan yagona platformasini Soliq qoʻmitasining axborot tizimlariga integratsiya qilish orqali davlat kosmik monitoringi doirasida qishloq xoʻjaligi yerlarida haqiqatda ekin ekilgan maydonlar boʻyicha maʼlumotlarni muntazam ravishda taqdim etib borish amaliyotini yoʻlga qoʻyadi.

Hududlarni barqaror rivojlantirishda qishloq xoʻjaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fermer, dehqon va tomorqa xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha kompleks dasturlarni amalga oshirish, ularni moliyalashtirish, subsidiya hamda imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda qishloq aholisining iqtisodiy mustaqilligini taʼminlayapti. Bu esa, oʻz navbatida, kambagʻallikni qisqartirish, aholi daromadini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ayni maqsadda joriy yilning 1-dekabriga qadar qishloq xoʻjaligi mahsulotlari realizatsiyasi uchun qoʻshilgan qiymat soligʻi “nol” stavkasi joriy qilinishi munosabati bilan qishloq xoʻjaligi sohasiga berilgan subsidiya va boshqa qoʻllab-quvvatlash choralarini maqbulalashtirish boʻyicha qaror loyihasi tayyorlanadi.

Umuman, bu yengilliklar soha vakillarining shaffof ishlashiga turtki beradi, joylarda yirik sanoatlashgan plantatsiyalar va qayta ishlash korxonalari koʻpayishga zamin yaratadi. Eng muhimi, endi fermerlarimiz qoʻlida juda katta miqdordagi aylanma mablagʻ qoladi.

Shu bilan birga, farmon sohada raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash, innovatsiyalarni keng joriy etish va qishloq xoʻjaligida band boʻlgan millionlab fuqarolar uchun munosib turmush darajasini taʼminlashga xizmat qiladi.

Bir soʻz bilan aytganda, hujjat fermer va dehqonlarga foyda keltiradi, qishloq aholisi daromadini oshiradi va mamlakatning iqtisodiy oʻsishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.



Boshlanishi 1-betda

— Kantarona mehnatlarim eʼtirof etilib, davlatimizning faxriy unvoni bilan taqdirlanganimdan juda mamnunman, — deydi akademik. — Bu yangilikni nafaqat men, balki hamkasblarim hamda shogirdlarim ham katta xursandlik bilan qabul qildi. Davlatimiz rahbarining bu eʼtirofini ilm-fanga qaratilgan eʼtiborning yaqqol isboti deb bilaman. Bizga bildirilgan yuksak



ishonchni, albatda, oqlaymiz hamda munosib izdoshlar tayyorlaymiz. Bugungi konferensiyada aytilgan tilaklar, tabriklar va eʼtiroflar sohada qiladigan ishlarimiz koʻp ekanini koʻrsatdi.

Tadbirda olimning safdoshlari, shogirdu hamkasblari uning ilgʻor innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi mehnati haqida soʻzlad.

— Ustoz Tohir Aripov — olimlik va chin insonlikning yaqqol timsoli. Uning faoliyati yoshlar va izdoshlari

O‘ZBEKISTON TANLAGAN YO‘L

Har bir xalqning kelajagini belgilovchi eng muhim omil u tanlagan yoʻldir. Shu maʼnoda bugungi kunda shiddat bilan oʻzgarayotgan murakkab geosiyosiy manzarada, Oʻzbekistonning barqaror taraqqiyot, tinchlik va farovonlik sari dadil harakat qilayotgan davlat sifatida jahon hamjamiyatida tobora katta eʼtirof va hurmat qozonayotgani diqqatga sazovor. Keng qamrovli islohotlar, tashqi siyosatdagi ochiqlik va muvozanat tamoyillari asosidagi faoliyat mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlab, dunyoga tanitmoqda.

Munosabat

Prezidentimizning “Baxt — intilganniki, gʻalaba — kurashganniki. Kelajakni mardlar, tarixni gʻoliblar yaratadi”, degan soʻzlari bugungi taraqqiyot yoʻlimizda bosh mezon boʻlib xizmat qilmoqda. Zero, oʻz taraqqiyot yoʻlini belgilab olgan Oʻzbekiston xalqaro maydonda tinchliksevar tashabbuslari, pragmatik yondashuvi va inson qadriyatiga asoslangan siyosati bilan alohida ajralib turmoqda.

Tarixan ikki buyuk daryo — Amudaryo va Sirdaryo oralgʻida umrguzaronlik qilgan ajdodlarimiz tabiat inijliklariga, zamon sinovlariga qarshi egilmas iroda bilan bardosh berib kelgan. Aynan shu iroda, aynan shu matonat tufayli Markaziy Osiyoning yuragi boʻlgan bu zamon qadimdan Buyuk Ipak yoʻli markaziga aylandi, sharqu gʻarbi, shimol bilan janubni bogʻlagan ulkan savdo va madaniyat chorrahasi sifatida jahonga tanildi.

Bugun ham Oʻzbekiston qulay geografik joylashuvi, tarixiy merosi, boy madaniyati va kuchli inson resurslari bilan global iqtisodiy va siyosiy maydonning faol ishtirokchisiga aylanish yoʻlida qatʼiy qadamlar tashlamoqda. Bu yoʻlda tashqi siyosatdagi ochiqlik, mintaqaviy hamkorlik, koʻp tomonlama manfaatli aloqalar muhim oʻrin tutmoqda.

“Inson qadri uchun” tamoyili nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi aloqalarda ham asosiy mezon boʻlayotir. Prezidentimizning xalqaro nashrlarda eʼlon qilinayotgan maqolalari, islohotlar borasidagi dadil tashabbuslari, xalqaro hamjamiyat bilan barqaror muloqoti yurtimizning yangi siyosiy imijini shakllantirmoqda.

Ozarbayjonlik shoʻir Akif Bagʻirovning “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobi va “Oʻzbek kelayotir” qasidasida Prezidentimizning islohotchi, xalqparvar, dadil yetakchi sifatidagi obraziga yuqori baho berilgan. Bu esa davlatimiz rahbarining xalqaro maydondagi faoliyati va tashabbuslari global miqyosda qanday eʼtirof etilayotganini koʻrsatadi.

2024-yilda Oʻzbekiston tomonidan 17 ta xalqaro tashrif, 140 dan ortiq xalqaro tadbir, 264 ta xalqaro bitim

uchun oʻziga xos namuna, — deydi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Shahlo Turdiqulova. — Olim serqirra faoliyat egasi. Uning yangi dori-darmonlar tayyorlash, tabiiy birikmalar va mikroorganizmdan foydalanib, oʻgʻitlar ishlab chiqish, tomchilatib sugʻorish va boshqa koʻplab yangilik hamda ixtirolari soha rivojiga xizmat qilmoqda.

Akademik rahbarligidagi tadqiqotchilar guruhi dorivor oʻsimliklar, jumladan, arslonquruq, doʻlana, moychechak va qoqioʻt asosida yurak-qon tomir tizimi uchun samarali dorivor vosita yaratish boʻyicha yangi fitokompozitsiya ishlab chiqqan. Aniqlanishicha, ushbu oʻsimliklar ekstrakti yurak shikastlanishi hamda yurak toʻqimasi hujayralari membranalari buzilishining oldini oladi. Kalsiy kanallari faoliyatini tartibga soladi, organizmning kislorod tanqisligiga qarshi kurashishga yordam beradi hamda hujayradagi metabolik jarayonni tiklaydi.

Olimning amaliy faoliyatidagi yana bir muhim yoʻnalish suvda eriydigan kompleks mineral oʻgʻitlar ishlab chiqishdir. Bu suv resurslari tanqisligi va iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq ekologik muammolar ortib borayotgan sharoitda, ayniqsa, dolzarb. Fan, taʼlim hamda ishlab chiqarish integratsiyasiga qoʻshgan hissassi tufayli olim rahbarligida amalga oshirilgan ilmiy ishlarnmalar qator yangi fundamental va amaliy tadqiqotlar uchun asos boʻlib xizmat qildi. Bu loyihalar doirasida istiqbolli dori-darmonlar kashf etildi hamda faol ikkilamchi metabolitlar toʻplanishi oshiruvchi zamonaviy biotexnologik yondashuvlar ishlab chiqildi.



Yuksak salohiyatga ega mana shunday olimlar jamoasining shakllanishi hamda ular mehnatining davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanishi ilm-fan sohasini rivojlantirish, dolzarb muammolarning samarali yechimlarini ishlab chiqish va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi ixtirolarni yuzaga keltirishda muhim omil boʻladi.

Rashid XOʻJAMOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON TANLAGAN YO‘L

Har bir xalqning kelajagini belgilovchi eng muhim omil u tanlagan yoʻldir. Shu maʼnoda bugungi kunda shiddat bilan oʻzgarayotgan murakkab geosiyosiy manzarada, Oʻzbekistonning barqaror taraqqiyot, tinchlik va farovonlik sari dadil harakat qilayotgan davlat sifatida jahon hamjamiyatida tobora katta eʼtirof va hurmat qozonayotgani diqqatga sazovor. Keng qamrovli islohotlar, tashqi siyosatdagi ochiqlik va muvozanat tamoyillari asosidagi faoliyat mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlab, dunyoga tanitmoqda.

va 2000 dan ortiq investitsiya loyihasi amalga oshirilgani bu eʼtiroflarning amaliy ifodasidir. Xususan, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) doirasidagi faol ishtirok, bu tashkilot orqali ilgari surilgan 105 ta tashabbusning 80 dan ortigʻi amaliyotga joriy etilgani, SHHT davlatlari sarmoyasi asosida ishlayotgan 7,5 mingdan ziyod korxona — bularning barchasi Oʻzbekistonning mintaqaviy va global maydondagi rolini mustahkamlamoqda.

SHHT Oʻzbekistonga nafaqat iqtisodiy, balki xavfsizlik, taʼlim, madaniyat sohalarida ham keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Jumladan, SHHTning Toshkentdagi Mintaqaviy aksilteror markazi orqali terrorizm va ekstremizga qarshi kurashilmoqda. “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻli, “yashil” texnologiyalar, qanqli iqtisodiyot kabi loyihalar milliy iqtisodiyotga yangi surʼat bermoqda.

“SHHT universiteti”, ilmiy almashinuv markazlari, Konfutsiy institutlari faoliyati yoshlar uchun keng imkoniyatlar maydonidir. Oʻzbekiston xalqaro maydonda masʼuliyatli hamkor sifatida tobora tan olinayapti.

Oʻzbekiston — Xitoy hamkorligidagi qiymati 60 milliard dollardan ortiq qoʻshma loyihalar, xususan, Fargʻona davlat universiteti huzurida Xitoyning Shansi arxeologik instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan Fargʻona-Shansi arxeologik tadqiqotlar markazi, madaniyat markazlari ochilishi va arxeologik ilmiy markazlar faoliyati mamlakatimizni yangi bosqichga olib chiqaydi.

Bugun dunyo Oʻzbekistonni barqarorlikni taʼminlay oladigan, oʻz soʻziga ega va masʼuliyatli xalqaro hamkor sifatida tan olmoqda. Oʻzbekiston yetakchisining tashqi siyosati va ilgari surayotgan tashabbuslari nafaqat iqtisodiy manfaat, balki inson qadri, tinchlik, taraqqiyot va umuminsoniy qadriyatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu esa Oʻzbekiston tanlagan yoʻl toʻgʻri, kelajak sari ishonchli qadamlar bilan idamlayotgan milliy taraqqiyot yoʻli ekanini yaqqol namoyon etmoqda.

Bahodir SHERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

Dilorom YORMATOVA,
professor

Ma'lumotlarga ko'ra, 2050-yilga borib, Markaziy Osiyoda chuchuk suv zaxiralari 10-15 foiz kamayishi va ekin ekiladigan yerlar degradatsiyaga uchrashi kabi salbiy holatlar yuz berishi, natijada qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi 20-25 foiz pasayishi mumkin.

Asrimizning o'rtalariga borib, O'zbekiston aholisi 50 million kishiga yetishi taxmin qilinayapti. Mana shunday sharoitda aholini chuchuk suv va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun qurg'oqchil maydonlar, sahrolar, tog' oldi va tog' yon bag'irlaridan ham imkon qadar foydalanish zarur.

Keyingi yillarda paxta va bug'doy maydonlarining bir qismi bog'dorchilikka ajratildi. Bu bog'larda kutilayotgan qurg'oqchilik, qattiq issiq va sovuqqa chidamli, uzoq yillar yuqori hosil beradigan mevali daraxt ko'chatlarini ekish lozim.

O'rikni shunday mevali daraxtlar qatoriga kiritish mumkin. Ayni paytda uning madaniy va yovvoyi turlari mavjud. Yovvoyi o'rik hozir Himolay tog'larida saqlanib qolgan. Uning mevasi bir oz tukli va ta'mi taxiroq. Rossiyaning Sibir hududi va Manchuriyada ham yovvoyi o'riklarni uchratish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda o'rikning vatani haqida turli qarashlar mavjud. Bu haqda gap ketsa, birinchi bo'lib Xitoyning Tyanshan tog'lari tilga olinadi. Chunki miloddan oldin yashagan Xitoy imperatori Yu asarlarida o'rik tilga olingan. Shu bilan birga, ayrim olimlar fikricha, o'rikning vatani Xitoy ekani to'g'risida aniq dalillar yetarli emas.

Yana bir guruh olimlar bu mevali daraxtning vatani Armaniston deydi. Biolog olim de Perderle XVIII asrda bunday deb yozgan edi: "Bu daraxt Osiyo provinsiyasi — Armanistonda paydo bo'lgan va Yevropaga o'sha yerdan olib kelingan..."

XIX asrda yashagan boshqa olimlarning yozishicha, eramizdan oldingi III asrlarda Aleksandr Makedonskiy o'rik daraxtini Armanistondan Gretsiyaga olib borgan. Keyinchalik Italiyada ham uni o'stirish yo'lga qo'yilgan. Ammo bu taxmin o'sha davrdagi Rim va yunon yozma manbalarida o'z tasdiq'ini topmagan. Chunki ushbu manbalarda o'rik daraxti umuman tilga olinmagan. Xullas, bu mevali daraxtning ilk vatani haqida aniq ma'lumotlar hozirgacha mavjud emas.

Fikrimizcha, o'rik daraxti qadim ajdodlarimiz Sibir va Uzoq Sharqda yashagan davrda o'sha yerlarda o'stirilgan. Bobolarimiz o'rik turshagi va dadagini olib kelib, o'zi o'troq bo'lib yashagan hududlarga ekkan. O'rik shu tarzda iqlimga moslashgan va tarqalgan.

So'nggi yillardagi iqlim o'zgarishi inson va jamiyat uchun katta geoiqtisodiy tahdidga aylanib bormoqda. Global isish va sovish oqibatida chuchuk suv tanqisligi, qurg'oqchilik, tuproqning cho'llanishi hamda sho'rlanishi, ekinlar hosildorligi kamayishi, toshqinlar, to'fonlar yuzaga kelishi kabi salbiy holatlar kuzatilyapti. Bular, o'z navbatida, oziq-ovqat yetishmovchiligi, yonilg'i-energetika taqchilligi, suv va boshqa hayotiy resurslardan foydalanish hamda oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini keltirib chiqarmoqda.

O'rikning Markaziy Osiyo va Kavkazda o'sadigan madaniy turlari shirin va quruqroq bo'ladi. Bugun Rossiyaning Uzoq Sharqi — Primorye o'lkasining janubiy rayonlari, shuningdek, Xitoy, Koreya yarimoroli va Yaponiyada o'rikning kasalliklarga chidamli madaniy turi keng tarqalgan. Armanistonda yetishtiriladigan o'riklar juda shirin bo'lib, yuqori

viloyatidagi o'rikzorlar 7000 gektardan ortiq maydonni egallagan. Har yili o'rtacha 60 ming tonnadan ziyod hosil olinib, 20 ming tonnaga yaqin quritilgan mahsulot xorijsa sotiladi.

— Mavsumda har hafta bozordan 100-110 tonnagacha o'rik sotib olamiz, — deydi qirg'izistonlik fermerlardan biri. — Quruq mevani qayta ishlaydigan zavodlarimiz bor. U yerda o'rikni qadoqlab, Rossiya,



hosil beradigan kichik daraxt yoki buta ko'rinishida o'sadi.

Bu mevaning eng sovuqqa chidamlisi — Sibir o'rigi. U Sharqliy Sibirning Dauriya tog'larida yovvoyi holda uchraydi. Daraxtning balandligi uch metrgacha yetadi.

Mutaxassislarning fikricha, quruq meva yetishtirish aynan Markaziy Osiyoda odatga aylangan va aynan shu mintaqaga aholisi dunyo bozoriga doim turshak va danak yetishtirib bergan. O'zbekiston 2023-yilda quruq meva yetishtirish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egalladi. Mamlakatimizda har yili 650 ming tonnagacha o'rik va boshqa quruq mevalar yetishtirilib, 65-70 ming tonnasi tashqi bozorda sotiladi.

Tojikiston Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda o'rikdan 150 ming tonnaga yaqin hosil olinadi, 40 ming tonnaga yaqin quruq meva eksport qilinadi. Qirg'izistonning Botken va Issiqko'l viloyatlarida ham katta hajmda bo'lib meva va o'rik qoqisi yetishtiriladi. Birgina Botken

Indoneziya, Litva, Latviya, Polsha va Xitoyga eksport qilamiz.

Xullas, qo'shni respublikada o'rikni qayta ishlab sotish bo'yicha anchagina yutuqlarga erishilgan. O'rik yetishtirish va qayta ishlash ushbu viloyat fermerlari daromadining asosiy qismini tashkil qiladi.

— Botken viloyatida turshak yetishtirish va sotish mahalliy aholining asosiy daromad manbalaridan biri, — deydi Botken o'rigini dunyo bozoriga olib chiqqan fermer Qurbonbek Ozozov. — Bu yerda qadimda o'rik an'anaviy usulda — quyosh nurida yoki oltingugurt yordamida quritilgan. Biroq bunday usul har doim ham barqaror sifatini ta'minlamaydi. Mevalar qurib qolishi, changlanishi yoki mog'orlashi mumkin.

Shuning uchun Qurbonbek Ozozov yillar davomida izlandi, xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan sifatli mahsulot yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va qishloq aholisini ish bilan ta'minlashni maqsad qildi.



— Mahsulotlarimiz xalqaro standartlarga javob bermagani, sifati xaridorlarni qoniqtirmagani tufayli 2017-yilda "Oltin Aymak" kompaniyasiga asos soldim, — deydi u. — Fermerlarni o'qitish va ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini izladim. Shu tariqa mahsulot sifatini yaxshilash va eksportga chiqarishga yordam beradigan loyihalar ishlab chiqdim.

O'rik daraxtining bo'yi 5-10 metrgacha yetadi. U biologik xususiyatiga ko'ra, qurg'oqchilikka o'ta chidamli. Ekilgandan so'ng 3-4 yilda hosilga kiradi. Ertapishir navlari bahorning boshida, kechpishar navlari esa sal kechroq gullaydi. Mevasi sariq-qizil tusli, servus va shirin, kattaligi naviga qarab turlicha bo'ladi. Daraxtning tanasi juda qattiqligi uchun undan turli cholg'u asboblari yasaladi.

O'rik mevasi juda to'yimli bo'lib, tarkibida inson organizmi uchun foydali antioksidantlar va metabolizmda ishtirok etuvchi turli moddalar mavjud. Mevasidagi qand miqdori 10-12 foizgacha, kletchatka 2 gramm bo'ladi. Xullas, uning tarkibida vitaminlar, minerallar va boshqa foydali moddalar ko'p.

Bugun yurtimizda o'rikning qandak, subhoni, oq isfarak, arzami, bobo radjab, ko'rsodiq, marokand, ruhi juvanon, xurmoi, guliston kabi ko'plab navlari ekiladi. Qurg'oqchilik va suv taqchilligi kutilayotgan ayni paytda o'rik eng maqbul daraxt. U qurg'oqchilikka, 30-35 daraja sovuqqa chidaydi. Shu o'rinda bir misol keltirib o'taman. Bir paytlar Samarqand — Toshkent yo'lining G'allaorol tumanidan o'tuvchi hududida ihotada daraxti sifatida o'rik, xandonpista va akatsiya ko'chatlari ekilgan. Bo'yining balandligi 5-6 metr bo'lgan shu o'riklarni hozir hech kim sug'ormaydi. Chunki bu yerda suvning o'zi yo'q. Shunday bo'lsa-da, bu ihotada daraxtlar 1960-yillardan bugungacha o'sib, hosil berib turibdi.

Demoqchimizki, global issiq va sovuq kutilayotgan paytda respublikada o'rik plantatsiyalarini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Mutaxassis sifatida bu plantatsiyalarga o'rikning subhoni navini ekishni tavsiya qilgan bo'lardim. Chunki ushbu navning hosili daraxtning shoxida turshakka aylanadi. Shu bois, turshagi juda xushta' mligi bilan boshqa navlarnikidan ajralib turadi.

Odatda o'rikning mevasi yeyilib, danagiga ko'p e'tibor berilmaydi. Vaholanki, o'rik danagidan xalq tabobatida beqiyos dori-darmon tayyorlanib, samarali qo'llanmoqda. O'rik danagining mag'zi xolesterin almashinuvini nazorat qiluvchi, tromblar hosil bo'lishining oldini oluvchi moddalarga boy.

Mamlakatimizda yiliga o'rtacha 660 ming tonnadan ortiq o'rik yetishtiriladi. Albatta, bu kam. Jahon bozorida esa o'rikning mevasiga ham, qoqisiga ham, mag'zi ham xaridor juda ko'p. Agar mevasi chiroyli quritilsa, juda qimmat sotish mumkin.

Bozorda mahsulotning tashqi ko'rinishi va ekologik tozaligiga alohida e'tibor beriladi. Daraxt shoxida qoqi bo'ladigan subhoni navi turshaklari organik mahsulot bo'lgani uchun jahon bozorida juda qimmat. Masalan, Rossiyada sifatiga qarab 600 rubldan 1200 rublgacha sotiladi. Bir tup subhoni navi daraxtidan 20 kilogramm turshak olish mumkin. Endi hisoblab ko'raylik: bir gektarda 400 tup o'rik daraxti ekib, har biridan 20 kilogramm turshak olinsa, jami 8 tonna bo'ladi. Endi bu turshaklarning bir kilogrammini o'rtacha 800 rubldan sotsak, bir gektardan 6,4 million ming rubl yoki 7500-8000 dollar daromad olinadi.

Mutaxassis sifatida meni bir savol o'ylantiradi: nega o'rik eksportini xalqaro talablarda mos standartlar asosida yo'lga qo'ya olmayapmiz? Qadoqlovchi va qayta

ishlovchilar yo'qmi? Bor bo'lsa, nega ular xizmatidan foydalanmayapmiz?

O'rik yetishtirish juda katta xarajat talab qilmaydi. Bir gektar yerga 1000 dollar xarajat qilib, 7-8 ming dollar foyda olish mumkin. Faqat ushbu o'rikzorlarda tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'yish lozim. Daraxtlar o'z vaqtida to'yib suv ichsa, mevasi yirik va mazali bo'lib yetiladi. Bundan tashqari, o'rikning danagidan ham ko'pgina foydali mahsulotlar olishimiz mumkin. Mallarang po'stini olib tashlasangiz, oppoq mag'zi qoladi. Ana shu oq rangli mag'zidan kosmetikada foydalanish maqsadida o'rik suti tayyorlash mumkin. O'rik suti ham bodom sutidek organik toza mahsulot. Hindistonning ayrim hududlarida o'rik danagining mag'zi po'stidan ajratilib, unga qo'shilib, non qilib yeyiladi. Aytishlaricha, shu yerlik aholi eng uzoq umr ko'rar ekan.

Bugun o'rik ekishni megaloyihaga aylantirish zarur. Mamlakatimizning barcha viloyatida katta-katta o'rikzorlar barpo qilish kerak. Chunki hech bir daraxt u kabi katta daromad keltirmaydi. In-vitro usulida bir necha oyda millionlab o'rik ko'chati yetishtirish mumkin. Faqatgina o'rikzorlar sug'oriladigan, kamroq bo'lsa-da suv bilan ta'minlangan maydonlar ajratilishi lozim. Tomchilatib sug'orish usulida parvarishlansa, ko'chatlarni yetishtirish yana ham arzon tushadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi bugun "aqli" qishloq xo'jaligiga o'tmoqda. Samarqand viloyatidagi "Bog'bon" in-vitro laboratoriyasi va respublikadagi yana bir necha laboratoriya ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanmoqda. Suv tanqis paytda mamlakatda katta o'rikzorlar barpo qilinsa, yangi nihollar in-vitro usulida ikkinchi yili hosilga kiradi. 4-6 yildan boshlab yuqori hosil bera boshlaydi. Oradan 4-5 yil o'tgach, bu mahsulotlarni dunyo bozoriga bemalol olib chiqish va yangi texnologiyalar asosida qayta ishlashni yo'lga qo'yish orqali katta daromad olish mumkin.

Keyingi paytlarda Prezidentimiz sohaga oid ikkita katta yig'ilish o'tkazdi va bog'dorchilikka e'tibor qaratish hamda mahsulotlar eksportiga doir zarur ko'rsatmalar berdi.

Biz daraxt ko'chatlarini ko'pincha katta mablag' evaziga chetdan olib kelamiz. O'rik ko'chati uchun esa bir dollar ham xarajat qilinmaydi. Chunki ularning barchasi yurtimizda yetishtiriladi. Natijada niholning tannaxsi arzon bo'ladi. Keyingi megaloyiha o'rikni qayta ishlash texnologiyasini yo'lga qo'yish bo'ladi. O'rik qoqisini sharbatga aylantirib, konservab saqlash va sotish texnologiyasini yo'lga qo'yish ham mumkin. Turli usulda quritilgan danaki-danaksiz qoqilardan naviga qarab, chiroyli mahsulotlar tayyorlashni o'rganish kerak.

Buvinimning aytishicha, bir vaqtlar o'rik danagi mag'zini kuydirib surma tayyorlashgan ekan. Danagidan yuz terisiga mos sut tayyorlash ustida izlanish uchun farmatsevt va kosmetologlarni qanchadan qancha yangi usullar kutib turibdi. Samarqand, Buxoro sho'rdanlari ming yillardan beri bozorlarimizda sotib kelinmoqda. Farg'ona, Namangan, Andijon yoki yana boshqa viloyatlar sho'rdanagini tayyorlash va bozorlarga, imkon bo'lsa, xorijsa chiqarish vaqti yetmadimi?

O'rikni faqat katta plantatsiyalarda emas, to'rt-besh sotilxi tomorqada ham ekib bo'ladi. Bu maydonning sharqdan janubga qaragan tomoniga o'rikning turli navlaridan 3-4 tupdan ekish bilan kishi o'z oilasini shirin meva bilan ta'minlashi mumkin.

Xullas, bundan buyon suv hajmi ko'paymaydi, aksincha, kamayib boradi. Shunday ekan, kam suv talab qiladigan, iqlimimizga moslashgan va daromad keltiruvchi o'simliklarni tanlab ekishimiz kerak. Mamlakatda o'rikzorlar tashkil qilish orqali minglab gektar maydonlardan olinadigan daromadni bir necha barobar oshirish imkoniyati mavjud.

YOSH OLIMA “SUYAKSIZ GO‘SHT” ISHLAB CHIQARMOQDA

Setora 6-sinfda o‘qib yurgan kezarlaridayoq ayrim ilmiy yangiliklar haqida jiddiy mulohaza yuritir, ularni bolalarcha aqli bilan hisoblar, ammo yechimini topa olmasdi. Otasi katta fermer bo‘lgani bois, uning oldiga — dalaga ko‘p borardi. Har safar ekin maydonlariga borganida yana xayolga berilib: “Nega dadam yerga paxta va g‘alladan boshqa narsa ekmaydi? Yoki boshqa narsa ekishga ko‘p mehnat qilish kerakmi? Balki boshqa fermerlar faqat shu tarzda ishlagani uchun dadam ham qolganlar qatorida bo‘lishni xohlar? Yo kattalar boshqa o‘simliklarni ekishni bilmasmikan?” deb o‘ylardi.

Kelajak egalari

Bu kabi savollar uni doim o‘ylantirardi. Bir oz ulg‘aygach, agar imkoni bo‘lsa, turli o‘simliklarni ekib, yerdan yanada unumli foydalanish haqida o‘ylardi. Ammo bu o‘z-o‘zidan qol‘ qolmasligi aniq. Buning uchun yetarli bilim va tajriba kerak. Shu sabab o‘ qishni kanda qilmaslik lozim.

Yuqori sinfga o‘tganida Setoraning o‘simliklarga qiziqishi tobora ortgandi. Har safar vaqt topildi deguncha otasiga ergashib dalaga yo‘l olardi. U yerda ayrim o‘simliklarning turi, qanday rivojlanishini kuzatardi. Gohida otasiga boshqa turdagi ekinlarni ham ekib ko‘rishni tavsiya qilardi. Fermer o‘shanda o‘zi istasa ham bu imkonsizligini, qat‘iy reja va topshiriqlarni chetlab o‘ta olmasligini aytgisi kelmasdi. O‘sha topshiriqlar esa g‘alla va paxtaga qaratilgandi. Shunda ham qizining ko‘nglini qoldirmaslikka harakat qilar va: “Bu taklifngni o‘rganib chiqaman”, deya javob berardi. Lekin o‘zicha mulohaza qilib ko‘rib, Kasbi tumanidagi fermerlarning aksariyati bir xil turdagi ekin yetishtirish bilan mashg‘ulligiga ajalanib ham qo‘yardi.

Setora maktabni tamomlagach, hech ikkilanmay qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi

bo‘yicha oliy ta‘lim olmoqchi ekanini bildirdi. Bundan ota-onasi ajablandi va uning dalaga chiqib, o‘simliklarni kuzatishi shunchaki qiziqish emasligini bildi. Shunday bo‘lsa-da, kattalar boshqa yo‘nalishlarda o‘qish haqida takliflar berib ko‘rdi. Foydasi bo‘lmadi. Qiz ahidan qaytmadi. O‘sha vaqtidagi Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi yo‘nalishiga hujjat topshirdi. Yoshligidan tirishqoq, bilimga intiluvchan qiz oliygoh imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindi. Uning uchun yetarli bilim olishga katta imkoniyatlar eshigi ochildi. Ustozlari ortidan ergashib, fanlarni mukammal o‘zlashtira boshladi. Ayniqsa, yangi navlarni yaratib, qishloq xo‘jaligi maydonlarida sinab ko‘rishga astoydil kirishdi. Bu istak uni yanada chuqur ilm olishga undadi. Setora asosiy vaqtini kutubxonada o‘tkazib, ko‘plab adabiyotlarni o‘qib chiqdi. Tajribali o‘qituvchilarning maslahatlarini oldi. Izzanlilardan bir zum bo‘lsa-da, ortga chekinmadi.

Bakalavriatni bitirgach, boshlagan ishini davom ettirish uchun magistraturaga davlat



granti asosida o‘qishga kirdi. Endi ilmiy ish bilan shug‘ullanishi uchun yanada qulay edi. U bugun ham ustози M.Abduazimov rahbarligida “Soyani ilidizidan tashqari oziqlantirishning o‘sishi va rivojlanishi hamda dukkaklarning chatnab to‘kilishiga ta’siri” mavzusida ilmiy izlanish olib bormoqda. Bundan tashqari, yosh olimlar o‘rtasida o‘tkaziladigan qator tanlovlarda faxrli o‘rinlarni egallab kelmogda. Jumladan, 2021-yili Toshkent shahrida o‘tkazilgan “O‘zbekiston uchun 100 g‘oya” tanlovida “Soya donidan oqsilga boy tofu mahsulotini olish” loyihasi bilan ishtirok etib, g‘olib bo‘ldi. Shuningdek, shu yili oliygohda “Eng yaxshi magistr” nominatsiyasiga ham munosib ko‘rildi. 2022-yilda “Mirzo Ulug‘bek vorislari” tanlovida maxsus sertifikat oldi. Shu bilan birga, Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan “Bo‘ljak olim” tanlovi doirasida e‘lon qilingan startup loyihalar bosqichining ikkinchi mavsumida o‘z loyihasi bilan ishtirok

etib, 1-o‘ringa loyiq deb topildi. Loyihani moliyalashtirish uchun 380 million so‘m ajratildi. Bundan tashqari, intiluvchan qiz “Ixtirochi ayol”, “Yosh olimlar” kabi qator tanlovlarda ishtirok etib, munosib o‘ringa sazovor bo‘lib kelmogda.

— Kasbi asosan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan tannalardan, — deydi Setora Hodiyeva. — Qashqadaryo iqlimiga mos soya o‘simligining yangi navi yaratilgach, uni dalamizda ekib, ko‘paytira boshladik. Boshqa dalalarda ham ekiladigan bo‘ldi. Ayni paytgacha vohamizda soya deyarli ekilmagan. Shu bois, ko‘pchilik bunga unchalik xohish bildirmadi. Bizning yerimizda har yili yetishtirilmoqda. Hozir uni qayta ishlashni ham yo‘lga qo‘yganimiz.

Yirik loyiha asosida ishlayotgan yosh olima tadqiqotini yil sayin boyitib bordi. Natijada uni amalga oshirish qolgandi, xolos. “Yosh olim” tanlovining ikkinchi mavsumida g‘oliblikni qo‘lga kiritgani Setoraning yangi sexni ochishiga sabab bo‘ldi.

— Ayni paytda Qarshi davlat texnika universiteti hududida qishloq sharoitida yetishtirilgan soya donidan tofu ishlab chiqara boshladik, — deydi Setora. — Loyihamiz moliyalashtirilgach, xorijdan zamonaviy uskunalar xarid qilib keldik. O‘zimizda yetishtirilgan soya donini seximizda qayta ishlab, sotuvga chiqarayapmiz. Hozir sexda besh talabani ish bilan ta'minladik. Talabga qarab mahsulot ishlab chiqarayapmiz. Biroq viloyatimizda bunga qiziquvchilar kam. To‘g‘ri, tofu ko‘pchilik uchun notanish. Aslida, inson salomatligi uchun foydali mahsulot. Faqat aholini bunga ko‘niktirish lozim.

Ochig‘i, voha aholisi orasida to‘g‘ri ovqatlanishga e’tibor juda past. Shu bois, yuqumli bo‘lmagan turli kasalliklar ko‘p uchraydi. Ayniqsa, yurak-qon tomir xastaliklari, qandli diabetdan aziyat chekuvchilar ham kam emas. Buning oldini olish, to‘g‘ri ovqatlanishga



rioya qilish uchun kerakli oziq-ovqatlar targ‘ibotini ko‘paytirish lozim. Aksariyat yurtodshlarimiz qaysi vaqtda nimani iste‘mol qilish haqida to‘laonli tushunchaga ega emas. Misol uchun, erta tongdanoq to‘y-ma‘rakalarda organizmga kuchlilik qiladigan taomlarni tanovul qilish urfga kirgan. Bu bir-ikki marta emas, balki muntazamligi bois, asta-sekin turli dardlarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Bugun odamlarning turmushi farovonlashdi. Shunday ekan, sog‘lom turmush tarziga amal qilib, uzoq umr ko‘rishga intilish kerak. E’tibor bersak, ko‘pgina davlatlarning aholisi asosan, tartibli iste‘molga jiddiy qaraydi. Natijada, doim sog‘lom yuradi. Uzoq umr ko‘rish indeksi ham ancha yuqori.

Yosh olimaning fikricha, tofu qator davlatlarda sevib iste‘mol qilinadi. Xususan, bu pishloq Yaponiya va Xitoyda juda mashhur yeguliklardan bo‘lib, millionlab odamlar uchun asosiy oqsil manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun u “suyaksiz go‘sh” deb atalar ekan. Tofu kam uglevodga egaligi va organizmga oson so‘rilishi bilan bolalar va

kattalar uchun qimmatbaho oziq-ovqat hisoblanadi.

Setora kelgusida tofu ishlab chiqarish tarmog‘ini kengaytirishni rejalashtirmoqda. Jumladan, Qarshi shahrida “suyaksiz go‘sh” sotiladigan oshxonaa faoliyatini yo‘lga qo‘yishni niyat qilgan. Bugun Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti bo‘lgan Setora Hodiyevaning katta orzusi odamlarni to‘g‘ri ovqatlanishga qiziqitirishdir. Shu maqsadda u bor imkoniyatini ishga solyapti.

Olimaning izlanishlari munosib taqdirlandi. Xususan, davlatimiz rahbarining joriy yil 28-iyundagi “Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, Setora Hodiyeva “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlandi. Bu yuksak e’tirof olimaning ishga mas’uliyatini oshirish bilan birga, unga katta kuch-quvvat baxsh etadi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qadriyat


Joriy yil 2-8-sentabr kunlari mamlakatimiz bo‘ylab an’anaviy “Muzeylar haftaligi” aksiyasi bo‘lib o‘tdi. Yetti kun davomida barcha davlat muzeylariga tashrif buyuruvchilar uchun bepul kirish imkoniyati taqdim etildi. Ushbu tashabbus mamlakatimiz madaniy merosini har bir fuqaro va mehmonga tanishtirish, shuningdek, yoshlarda tarix, milliy o‘zlik va madaniy an‘analarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli sanaladi.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: bunday tashabbuslarning zahirida qanday maqsad mujassam? Harakatlarning mazmuni madaniy merosga e’tibor bilan tasniflansa, unda agar madaniy merosning o‘zi yo‘q bo‘lsa, qanday hodisa yuz beradi? Nimaningdir qadriga yetish uchun, avvalo, uning mohiyatini anglash zarur-ku, to‘g‘rimi?

Keling, endi tasavvur qilamiz: bir millat o‘z madaniy merosini yo‘qotsa, uning eng katta fojiasi o‘zligidan ayrilishi bo‘ladi. Millat tarixiy xotirasiz qoladi, ma’nan qashshoqlikka yuz tutadi, ichki birdamlik susayadi va kelajak avlodlar o‘zini aslan qaysi qadriyatlarga tegishli ekanini eslolmaydi. Ildizi nobud bo‘lgan daraxt shamol qaysi tarafga esa, o‘sha tomonga egilib ketgani kabi madaniy merossiz millat ham boshqa madaniyatlarda ta’sirida qoladi. Madaniy merossiz millatning yo‘nalishsiz qolishi tarixda bir necha marta kuzatilgan, chunki meros yo‘qotilgan joyda millatning ma’naviy surasi sinadi.

Masalan, qadimgi Shumer sivilizatsiyasi insoniyatga yozuv, arxitektura, irrigatsiya va davlatchilik haqida ilk tushunchalarni bergan bo‘lsa-da, ularning tili, urf-odatlari qumga tushgan surved yo‘qlikka singib ketdi, xalq sifatida o‘zi ham yo‘qoldi. Amerika qit’asidagi mayya, asteek va ink sivilizatsiyalarining qismati ham shunday kechdi. Ispan konkastadorlari ularning ko‘p aslik madaniy boyliklarini, beqiyos ibodatxonalarini yo‘q qildi. Natijada bu ulkan xalqlar madaniy qudratidan ajralib, faqat tarix sahifalarida qoldi. Sovet davrida esa ko‘plab xalqlar “bir til, bir madaniyat” siyosati ta’sirida o‘z qadriyatlaridan uzildi. Sibirdagi yuzlab mahalliy xalqlar tillarini unutdi, an’analari butunlay so‘ndi.

Yer yuzida 6 mingdan ortiq til bor bo‘lsa, mavjud tillarning yarmida 10 mingdan kam, choraktasida esa mingga ham yetmaydigan odamlar guruhi gaplashadi. Avstraliya aborigenlari va Amerika hindulari tillarining ko‘pida so‘zlovchilar nisbatan ancha kam. Amazon havzasidagi har bir tilda o‘rtacha 150 kishi so‘zlashadi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, mana shu 6 mingdan ortiq tilning kamida yarmi yo‘qolish arafasida. Demak, bu til egalarining madaniy merosi ham xavfda. Chukotkadagi mahalliy elatlar, Afrikadagi ko‘p



MUZEYLAR HAFTALIGI

YOXUD MODDIY SAQLANMALARNING JAMIYAT TAFAKKURIDAGI AHAMIYATI QANCHALIK YUQORI?

qavmlar o‘z tillari va an‘analarini asrab qolmasa, yaqin asrlarda ular haqida faqat kitoblarda o‘qish mumkin bo‘ladi.

Shu sababdan madaniy merosni avaylash ertangi kunni asramoq demak. Madaniy meros o‘tmish bilan bugunni, bugun bilan kelajakni bog‘laydi. Soddaroq tushuntiray: agar yozma manbalar, me’moriy yodgorliklar, san’at asarlari va turli nomoddiy ma’naviy meroslarimiz bizga qadar yetib kelmaganida edi, biz nafaqat ajdodlarimizning qanchalik aqlli, buyuk va taraqqiyparvar bo‘lganini to‘liq anglay olmas edik, balki o‘zimiz-da hozirgidek taraqqiy topmasdik.

Abu Rayhon Beruniyini olaylik. Uning qomusiy bilimga ega alloma bo‘lganini aynan kitoblari orqali bilampmiz. Shuningdek, Ibn Siningning tib ilmidagi buyuk kashfiyotlari, Mahmud Koshg‘ariyning tilshunoslikdagi ilmiy merosi, Amir Temur davlatidagi siyosiy va harbiy islohotlar haqida ham aynan madaniy meros — yozma asarlar, tarixiy yodgorliklar va qo‘lyozmalar orqali xabar topypmiz. Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi Minorai Kalon, Xivaning Ichanqal’asi yoki Termizdagi buddaviylik davri yodgorliklari — bularning har biri bizga muayyan davming hayoti, e’tiqodi va madaniy darajasidan xabar beruvchi tirik hujjatlardir. Shu ma’noda, madaniy meros tarixni faqat rost gapirishga majburlovchi yagona guvoh. U kim ekanligimiz, qaysi yo‘ldan kelayotganimiz va qanday qiymatlarga tayanayotganimizni ko‘rsatadi.

Muzeylar esa madaniy merosni saqlashda juda muhim, lekin ularni yagona yoki qolgan hamma narsaning o‘rmini bosadi deb aytilish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Muzeylarning o‘zga muassasalardan ajralib turadigan asosiy jihatlari bor: ular moddiy obyektlarni mustahkam va nazoratdagi muhitda saqlay oladi, namlik, hasharot, nurlanish va zararlanishdan himoyalaydi. Qadimgi qo‘lyozmalar ranglarining tiklanishini ta’minlaydi, metall yoki tosh eksponatlar korroziasining oldini oladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Xo‘sh, muzey faqat shuning uchun muhimmi? Davlatimiz tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlovning yolg‘iz sababi shumi? Yo‘q, albatta. Birinchidan, muzeylar tadqiqot markazi vazifasini o‘taydi — ular provenansni o‘rganadi, ya’ni A predmet qayerdan kelganini aniqlaydi, tarixiy kontekstni tiklaydi, yangi ilmiy ma’lumotlar yaratadi va shu orqali umumiy tarixiy tasavvurni to‘ldiradi. Ikkinchidan, muzeylar maktab va universitet darslarini boyitadi, ekskursiyalar, ilmiy seminarlarga asos bo‘ladi, bu omil yosh avlodning tarixiy va ma’naviy ongini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Har qanday sarfning o‘zini oqlashi bilan bog‘liq savolga kelsak: sarflarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy foydasi ko‘p qirrali. Muzeylar san’at industriyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Umuman, ular “mafkuraviy magnit” vazifasini bajaradi —

millat darajasidagi jamoatlarni o‘ziga tortib turadi. Turizm iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan, muzeylar sayyoh oqimini oshiradi. Masalan, Luvr yiliga 9-10 million sayyohni jalb etadi, bu esa Parij iqtisodiyotiga milliardlab yevro daromad keltiradi. Bundan tashqari, muzeylar turizm turlarini diversifikatsiya qiladi. Masalan, diniy turizm ziyyorat obyektlariga, arxeologik turizm qazilma yodgorliklariga qiziqish paydo qiladi. Muzeylar esa shu turlarni bir makonda uyg‘unlashtirib, sayyohga qulaylik yaratadi. Shuning uchun ko‘pincha turagientliklar yo‘nalishni tuzganda muzeylarni markazga qo‘yadi. Yana bir jihat, muzeylar turizmni mavsumiyligidan chiqaradi. Masalan, tog‘-chang‘i yoki playaj turizmi muayyan faslga bog‘liq. Muzey esa yil davomida sayyoh qabul qiladi. Bu shahar iqtisodiyoti uchun ham, mahalliy aholi ish

o‘rinlari uchun ham barqarorlik yaratadi. Shuningdek, muzeylar xalqaro aloqalarni o‘rnatish uchun ajoyib vosita, bir davlatning o‘ziga xos “yumshoq kuchi”. Ko‘rgazmalarni ayiriboshlash, ilmiy hamkorlik va madaniy diplomatiya orqali mamlakat obro‘si oshadi. Aytilish kerakki, muzeylarga kiritilgan sarf — uzoq muddatli investitsiya: u darhol iqtisodiy foyda ko‘rsatmasligi mumkin, lekin vaqti kelib, madaniy turistik brend va bilimlar infratuzilmasi sifatida katta qaytim beradi.

Prezidentimiz tomonidan O‘zbekiston Milliy muzeiyga tamal toshi qo‘yilganidan ma’lum bo‘lmog‘diki, muzeyning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ham nihoyatda katta. U davlatning madaniy siyosatida muhim o‘rin egallaydi. Jahon hamjamiyatiga xalqning boy merosi, qadriyatlari va taraqqiyo‘ yo‘li namoyish etiladi. Bugun Milliy muzeyning bunyodi uchun boshlangan qadamlar O‘zbekistonning mustaqilligi, o‘z tarixini qadrlashi va uni dunyo sahnasida ko‘rsatishga intilishini bildirmoqda.

Ushbu ulkan ko‘lamdagi muzey ertaga jamiyatning o‘zini anglashida, siyosiy barqarorlikda va milliy g‘oyani shakllantirishda muhim muassasa, markaz bo‘lib xizmat qiladi. Turli qatlamlarni yagona qadriyat atrofida jamlashga yordam beradi. Masalan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeiyga kirgan odam ming yillik tarixiy jarayonlarni ko‘rib, o‘zini shu yurtning bir bo‘lagi sifatida his qiladi. Bu ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi.

Muzey, yuqoridagi ta’kidlab o‘tganimizdek, davlatning siyosiy qarashlarini, tarixga munosabatini va milliy siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlarni aks ettiradi. Misol uchun, mustaqillikdan so‘ng ochilgan Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeiyi bevosita tarixiy adolat ramzi sifatida qad rostladi. Bu muzey insoniyatga nafaqat o‘tmish xatolarini eslatadi, balki kelajakda bunday zulm qaytarilmasligi zarurligini siyosiy xabar sifatida ham berib turadi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, muzeylarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati yanada ravshanlashadi. Germaniyadagi Berlin devori bo‘laklari saqlanayotgan muzeylar nafaqat tarixiy yodgorlik, balki siyosiy xotira maskanidir. U yerga kelgan har bir odam totalitar tuzumning oqibatlarini, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshiliklar qanday bo‘lganini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. AQSHdagi “9/11 Memorial Museum” esa nafaqat dahshatli fojiani yodga soladi, balki terrorizmga qarshi kurash siyosatining ramziy asosini mustahkamlaydi.

Joriy yil 21-avgustda Prezidentimizning “Xalqaro zamonaviy san’at biyennalesini yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Endi 2025-yildan har 2 yilda 1 marta sentyabr-noyabr oylarida Buxoro shahrida xalqaro zamonaviy san’at biyennalesi o‘tkazib boriladi. Birinchi biyennale joriy yil 5-sentabr — 20-noyabr kunlari o‘tkazilmoqda. Biyennale o‘tkaziladigan 14 ta madaniy meros obyekti ko‘rgazma va tadbirlar, ta’lim va tadqiqot, ijodiyot va ishlab chiqarish jarayonlari uyg‘unlashgan kreativ klasterga aylantirilmoqda. Dunyoga tanilgi ijodkor, mutaxassis va oshqapzar ishtirokida keng jamoatchilik uchun 10 haftalik ilmiy-ma’rifiy, madaniy-ko‘ngilochar, sayyohlik va gastronomik dasturlar tashkil etilayti.

30 dan ortiq xalqaro ekspert, kurator va san’atshunos ishtirokida xalqaro akademik simpozium o‘tkaziladi. Bularning hammasi madaniy meros tushunchasining qiymatini anglashga yana bir bor yordam beradi. Biyennale nafaqat badiiy tadbir, balki madaniy diplomatiyaning kelajagi va O‘zbekistonning kreativ sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni muhkama qilish maydoniga aylanayotganiga ishonch beradi.

Tarixga aylanish tuyg‘usi insonni hayratga solishi tabiiy, chunki odam o‘zini faqat zamonaviy hayot jarayonida emas, balki kelajakning xotirasida ham ko‘ra boshlaydi. Bu esa unga ikki xil quvvatni taqdim etadi: mas’uliyat va ilhom. Mas’uliyat bugun qilayotgan har bir qadamimiz kelajakda bizning kimligimizni ko‘rsatishini anglashdan tug‘iladi. Ilhom esa qilingan egru ish, qurilgan bino, yozilgan asar abadiyatning bir bo‘lagiga aylanadi degan ishonchdan kelib chiqadi.

Ayni damda yaratilgan va yaratilayotgan obidalar yoki zamonaviy markazlarning ke-yinchalik madaniy meros maqomiga ega bo‘lishi ularning endi faqat “muзей ekspozitsii” sifatida qolishini anglatmaydi. Masalan, Milliy Olimpiya shaharchasi yoki Milliy futbol markazi hozir sport infratuzilmasi sifatida xizmat qilishga shay holatda. Bir necha o‘n yuz yillardan keyin ular yozilgan rekordlar, g‘alabalar, chempionlar, o‘tkazilgan nufuzli musobaqalar tarixga aylanadi va bu inshootlar ham ramziy ma’noda merosga do‘nadi. Lekin bu ularning hozirgi funksiyasi — sport rivoji va xalqaro hamkorlik markazi sifatidagi ahamiyatini yo‘qqa chiqarmaydi. Aksincha, kelajakda ularning meros sifatida qadrlanishi hozirgi kun vazifalarini yanada mas’uliyatli qiladi. Shu ma’noda, merosga aylanish eskirganlik emas, aksincha, barcha sa’y-harakatlarimiz abadiy iz qoldirayotganini his qilish, o‘z ishimizga ulkan ma’no bag‘ishlash demakdir.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Surxondaryoda turizmni izchil rivojlantirish, vohaga kelayotgan sayyohlarni ko‘paytirish, ularga ko‘rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, sayyohlik obyektlaridan samarali foydalanish borasida tizimli ishlar qilinmoqda.



Obod manzillar



JANVAR YOQDAN YARQIRAYSAN, SURXONDARYO!

VOHANING TURIZM SALOHİYATI YUKSALIB, DUNYO SAYYOHLARINI CHORLAMOQDA

Viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, joriy yilning dastlabki 5 oyida turizm sohasidagi xizmatlar eksporti qiymati 2,8 million dollarga teng bo‘lgan. Bu 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 9,1 foiz ko‘p demakdir.

— Surxon vohasi haqida so‘z ketganda muarrixlar, arxeolog va folklorshunos olimlar uning o‘tmishi dunyodagi eng qadimgi davlatlar tarixi bilan bellasha olishini aytadi, — deydi tarix fanlari nomzodi, taniqli arxeolog To‘xtash Annayev. — Bunday salmoqli ta’rif berilishi bejiz emas. Voha insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy beshiklaridan biri bo‘lgan. O‘z davrida ilk davlatchilik, shaharsozlik, hunarmandchilik va dastlabki sug‘orma dehqonchilik hamda ulkan bunyodkorlik ishlari boshlanishida poydevor vazifasini o‘tagan Surxon vohasiga qiziqmaslikning, uning asrlar osha sayqal topgan manzaralaridan zavqlanmaslikning iloji yo‘q.

Haqiqatan, bugun O‘zbekiston jahon sayyohlik bozorida eng jozibador mamlakatlardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, turizm biznesini kengaytirishga qaratilgan e’tibor tufayli sayyohlik xizmati ko‘rsatadigan tadbirkorlar safi kengayib boryapti. Natijada mehnat bozorining muayyan segmentlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining joriy yil 15-maydagi “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal

kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ham muhim asos bo‘ldi. Unga ko‘ra, joylashtirish vositalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, yirik, o‘rta, kichik mehmonxonalar va boshqa turizm obyektlarini qurish loyihalarini amalga oshirish, tadbirkorlarga o‘z xizmatlarining sifatini yanada yaxshilash uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish alohida belgilan berilgan. Ayni paytda Boysun va Sariosiyo tumanlarida ana shu vazifalar ijrosi ta’minlanmoqda. Xususan, ushbu ikki tumanning turizm imkoniyati yuqori bo‘lgan hududlarida apart-otel, kapsula uylar va shu kabi joylashtirish vositalaridan iborat zamonaviy dam olish maskanlari tashkil etilyapti. Maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shish orqali xalqimiz farovonligini ta’minlashdir.

— Omonxona qishlog‘ida 200 xonadon mavjud. Ularning barchasi Omonxona bulog‘ining shifobaxsh suvidan ichib, davolanish, tabiat go‘zalligidan bahra olish uchun kelgan mehmonlarni qabul qiladi. Ya’ni 200 xonadonda bir vaqtning o‘zida 1500-2000

mehmon qo‘noq bo‘lishi mumkin. Kunlik kelib-ketuvchilar ham hisobga olinsa, bir yilda 120 mingdan ortiq sayyoh Omonxonaga keladi, — deydi tadbirkor Ibrohim Haydarov. — Bundan tashqari, qishlog‘imizda 3 ta zamonaviy mehmonxona, 20 ta oilaviy mehmon uyi, 2 ta xostel va 1 ta 160 o‘rinli sog‘lomlashtirish sanatoriysi bor. Umumiy ovqatlanish va boshqa savdo shoxobchalari mahalliy hamda xorijlik sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsataypti. Omonxona bir vaqtlar ko‘rimsiz, har yili sanoqli kishi keladigan joy edi. Hozir mo‘jaz shaharcha ko‘rinishiga kelgan.

Bugun Boysun tumanida 293 o‘rinli 8 ta mehmonxona, 131 o‘ringa ega 4 ta xostel, 498 o‘rinli 55 ta mehmon uyi mavjud. Birgina 2024-yilda tumanda jami qiymati 20 milliard so‘mga teng 68 o‘rinli mehmonxona va boshqa shu turdagi obyektlar qurilib, foydalanishga topshirilgan. Bundan tashqari, 2025-2026-yillarda yana yettita mehmonxona barpo etish rejalashtirilgan. Buning uchun 48 milliard so‘m yo‘naltiriladi va 46 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Baland tog‘lar bag‘rida joylashgan Boysunning o‘ziga xos tabiati, maftunkor



manzarasi, yam-yashil archazorlari, turli giyohlari va sirli g‘orlari, qariyb 200 metr balandlikdan — qoyadan qoyaga urilib tushayotgan sharsharalar hech bir sayyohni befarq qoldirmaydi. Darvoqe, hudud ekoturizm imkoniyatlari bilan ham tobora tanilib bormoqda.

2021-yilda Surxon vohasiga 91 ming 894 xorijlik sayyoh kelgan. 2024-yilda esa vohaga keluvchi chet elliklar 701 mingga yetdi. Joriy yilning birinchi choragida 60 ga yaqin davlatdan 147 ming kishi kelgan. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sayyohlar soni 2,6 barobar ortganini ko‘rsatadi.

— Surxondaryo viloyatida ichki turizmni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilgan bo‘is, vohaga keluvchi mahalliy sayyohlar soni yildan yilga ortyapti. Jumladan, 2021-yilda 762 ming 106 mahalliy sayyohga xizmat ko‘rsatilgan. O‘tgan yilga kelib esa, ular soni 1 million 700 ga yetgan. Joriy yilda 2 million 200 mahalliy sayyohga xizmat ko‘rsatish rejalashtirilgan, — deydi viloyat turizm boshqarmasi bo‘lim mudiri Shuhrat Ibrohimov.

Turizm rivojlanishi, sayyohlar oqimi ko‘payishida mehmonxona xizmati ham muhim o‘rin tutadi. Joriy yilda Surxondaryoda mehmonxonalar soni 50 taga, oilaviy mehmon uylari 148 taga, xostellar 25 taga yetdi. Shu tariqa viloyatda sayyohlar uchun jami 5900 o‘rin tayyorlandi. Har bir mehmonxona zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanib, eng nozikta b mijozlarga ham yuqori sifatli xizmat



ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yo‘nalishda 830 kishining bandligi ta’minlangan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng shart-sharoit yaratilmoqda. 2030-yilga qadar xorijlik sayyohlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 millionga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga mamlakatda 30 ta yirik turizm klasteri tashkil etish, mehmonxona o‘rinlari sonini kamida 2 barobar oshirish, tog‘li hududlarda 25 ta dor yo‘li tortish, turizm mahallalar sonini 175 taga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, sayyohlik xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini esa yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish yuzasidan samarali ishlar bajarilmoqda.

Surxondaryoda ziyyorat, agro, ekstremal, gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyati keng. Bugun viloyatda 562 ta madaniy meros obyekti davlat ro‘yxatiga olingan. Ularning 444 tasi arxeologik yodgorlik, 32 tasi islom ziyyorat turizmi va 8 tasi buddizm inshootlaridir. Surxon vohasida tabiati go‘zal, dilga xush yoqadigan maskanlar ko‘p. Keyingi yillarda ana shu maftunkor tog‘ qishloqlari infratuzilmasi ham tubdan yaxshilanmoqda. Xususan, Darbandda yangi turizm manzilgohi tashkil etilmoqda. Sariosiyo vodiagi Sangardak sharsharasi hududi obodonlashtirildi. Xonjizada turizm maskani bunyod etilib, mehmonlar uchun qulay sharoit yaratildi. Hududdagi daryolar sohili xavfsiz holatga keltirildi. Xullas, ajib tabiat, salqin shabada bu manzillarni sayyohlar uchun sevimli maskanaga aylantirgan. Sherobod tumani ham Xo‘jaikona tuz konidagi shifobaxsh g‘or bilan dunyoga tanilgan. So‘lim tog‘ qo‘ynidagi bu maskan galereya va beshta xonadan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos mikroiklimga ega. Noyob g‘or atrofidagi qishloqda ikkita xostel, beshta oilaviy mehmon uyi sayyohlarga xizmat ko‘rsataypti. Shuningdek, ikkita davolash va sog‘lomlashtirish muassasasi, o‘ndan ortiq do‘kon hamda boshqa xizmat ko‘rsatish shoxobchalari faoliyat yuritmoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-946.

34830 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrissabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 21:40

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05